


## GEOGRAFIYA

- Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi davrida Vasko da Gama ekspeditsiyasi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqeani toping.
- A) Afrikani aylanib o'tib, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi  
B) Janubiy Amerika qirg'oqlarini tekshirib, bu yerlar Hindiston emasligini aniqladi  
C) Hind okeanini g'arbdan sharq tomonga suzib o'tib, Avstraliya janubiga bordi  
D) okeanlardagi ko'plab marjon orollarni aniqlab, ularni kashf etdi


- Ushbu rasmida geolog turgan nuqtaga nisbatan daraxtning azimuti  $45^{\circ}$  ga teng. Geolog turgan nuqtaga nisbatan piramidaning yo'nalishi ufqning qaysi tomoniga mos kelishini aniqlang.



- A) shimol B) shimoli-g'arb C) janubi-g'arb D) g'arb


- Baykal tog' burmalanish bosqichi qaysi eraga tegishli?  
A) mezozoy B) kaynozoy C) proterozoy D) paleozoy

- Quyidagi diagrammadan foydalanib yillik yog'in miqdorining necha foizi bahor mavsumiga to'g'ri kelishini aniqlang.



- 24,1 % B) 26,6 % C) 37,1 %  
D) 12,6 %
- Avstraliya materigi Tinch okeanini qaysi tomonidan o'rabi turadi?  
A) shimoli-sharqdan B) janubi-g'arbdan  
C) shimoli-g'arbdan D) janubi-sharqdan
- Janubiy Amerikaning qaysi iqlim mintaqasida ikkita fasl aniq ifodalanadi?  
A) ekvatorial B) mo'tadil C) tropik  
D) subekvatorial
- Afrikaning qaysi hududlari ekvatorial iqlim mintaqasida joylashgan?  
A) Sharqiy Afrika yassi tog'ligining sharqiy qismi, Somali yarimoroli sohillari  
B) Kongo daryosi havzasining bir qismi, Gvineya qo'lting'i sohillari  
C) Nil daryosi sohillarining sharqiy qismi, Drakon tog'lari etaklari  
D) Efiopiya tog'ligining shimoliy etaklari, Debunja hududi
- Old Osiyo tabiiy geografik o'lkasining geologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.  
1) Alp-Himolay seysmik mintaqasiga kiradi;  
2) zamini paleozoy erasida vujudga kelgan;  
3) Yer qimirlashlari, vulqon harakatlari kuzatilmaydi; 4) Yer yuzasi tuzilishi juda murakkab bo'lib, proterozoy erasi jinslaridan tarkib topgan, zamini mustahkam platforma ustida joylashgan; 5) o'lka hududi tektonik jihatdan faol mintaqada joylashgan.  
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 5 D) 2, 4, 5

9. Quyidagi chizmada 1 va 2 raqamlari bilan belgilangan kataklarga mos keladigan to‘g‘ri javobni toping.



- A) 1 – Denali; 2 – Appalachi  
 B) 1 – Monblan; 2 – Katta Suvayrig‘ich tizmasi  
 C) 1 – Mitchell; 2 – And  
 D) 1 – Elbert; 2 – Qoyali tog‘lar
10. Turon (1) va Qozog‘iston (2) iqlimi uchun yoz fasliga xos bo‘lgan xususiyatlar to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.  
 a) kuchli qizigan, quruq, kontinental tropik havosining vujudga kelishi, jazirama issiq bo‘lishi; b) mo‘tadil havo massasi uzoq vaqt turishi, siklon faoliyati kuchayishi; c) havo bosimi ortishi, antisiklon faoliyatining kuchayishi.  
 A) 1-a, 2-b    B) 1-c, 2-a    C) 1-b, 2-c  
 D) 1-b, 2-a


11. Ustyurt okrugida joylashgan botiq nomini toping.  
 A) Qoraxotin    B) Mingbuloq  
 C) Oyoqog‘itma    D) Borsakelmas

12. *Qizilqum yer yuzasi tuzilishi jihatidan janubi-sharqdan shimoli-g‘arbga qarab pasayib boradi. Yerusti tuzilishi jihatidan har xil bo‘lib, tekisliklar, qoldiq tog‘lar va ular orasidagi botiqlardan iborat. Markaziy qismida Qoraxotin, Mullali, Oyoqog‘itma kabi ... (I) joylashgan. Qizilqumda marza qumlar orasidagi past joylar bahorda suv bilan to‘lib, yozda suvi qurib, ... (II) aylanadi.*  
 Matndagi nuqtalar o‘rniga quyidagi ma‘lumotlardan mos keladiganlarini toping.  
 1) botiqlar; 2) qirlar; 3) qayirga; 4) taqirga.  
 A) I-1; II-3    B) I-2; II-4    C) I-1; II-4  
 D) I-2; II-3

13. Tabiiy geografik okruglar va ularga oid ma‘lumotlar to‘g‘ri moslashtirilgan javobni belgilang.

- 1) Qashqadaryo; 2) Surxondaryo.  
 a) okrugning tekislik qismi Turon plitasining sharqiy chekka qismi ustida joylashgan;  
 b) okrug shimoliy, shimoli-sharqiy va sharqiy tomonlardan tog‘lar bilan o‘ralgan;  
 c) okrugdagi vodiyning janubi-g‘arbiy qismi keng bo‘lib, shimoli-sharqi tor, shakliga ko‘ra uchburchakka o‘xshash.  
 A) 1-b, c; 2-c, a    B) 1-b, c; 2-a, c  
 C) 1-a, b; 2-b, c    D) 1-c, a; 2-b, a

14. Chizmada ko‘rsatilgan tabiiy geografik okrug hududida joylashgan past tog‘larni toping.



- A) 1, 2    B) 1, 3    C) 3, 4    D) 2, 3

15. Qashqadaryo yoqilg‘i sanoati yalpi mahsulot hajmi bo‘yicha respublikamizda nechanchi o‘rinda turadi?

- A) ikkinchi    B) uchinchi    C) to‘rtinchi  
 D) birinchi

16. Surxondaryodagi Jarqo‘rg‘on neftni qayta ishlash zavodida neft qayta ishlanib, undan qanday mahsulotlar olinmoqda?

- A) benzin va dizel yoqilg‘isi  
 B) suyultirilgan gaz va plastmassa  
 C) etil spirti va parafin  
 D) metan va sintetik tola

17. Jahonda eng ko‘p paxta yetishtiradigan davlatlardan birini toping.


- A) Meksika    B) AQSh    C) JAR  
 D) Avstraliya

18. Afrika mamlakatlari ichida kofe xomashyosini jahon bozoriga ko‘p miqdorda eksport qiladigan davlatlarni aniqlang.

- A) Chad, Malavi    B) Sudan, Gana  
 C) Burundi, Uganda    D) Niger, Gabon

- 19.** Jahoning eng yirik moliyaviy markazlarini aniqlang.
- A) Seul, Vashington, London  
 B) Vashington, Berlin, Dubay  
 C) London, Nyu-York, Tokio  
 D) Nyu-York, Bern, Pekin
- 20.** Jalon qishloq xo'jaligi tarmog'iga oid to'g'ri ma'lumotlarni belgilang.
- 1) jahon bo'yicha hozirgi paytda, taxminan, 1,4 mlrd. kishi qishloq xo'jaligi sohasida band;  
 2) jahonda yetishtirilayotgan soyaning yarmi Xitoy hissasiga to'g'ri keladi; 3) Braziliya jahonda eng ko'p paxta yetishtiruvchi davlatlardan biri; 4) Keniya choy yalpi hosili bo'yicha jahondagi peshqadam davlatlardan biri; 5) donli ekinlar jahon ekin maydonlarining 2/3 qismida ekiladi.
- A) 2, 3, 5    B) 2, 3, 4    C) 1, 3, 4    D) 1, 4, 5
- 21.** Turkiya davlatining hududi qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?
- A) subekvatorial    B) subtropik    C) mo'tadil  
 D) ekvatorial
- 22.** Havo (atmosfera)ga, asosan, qaysi kimyoviy birikmalarining ko'p chiqarilib yuborilishi natijasida Yerdagi hayotning qalqoni hisoblangan ozon qatlamingin tobora yupqalashib borishi kuzatilmogda?
- A) uglerod-vodorodli  
 B) gelyi-argonli  
 C) ftor-xlorli  
 D) gelyi-neonli
- 23.** Qaysi davlatda mahalliy dinlardan iudaizm keng tarqalgan?
- A) Isroil    B) Filippin    C) Nepal  
 D) Sharqiy Timor
- 24.** Quyidagi ma'lumotlardan aholining milliy tarkibi va ularga mos keladigan davlatlar to'g'ri berilgan javobni toping.
- 1) bir millatli davlat; 2) ikki millatli davlat;  
 3) kelib chiqishi bir-biriga yaqin millatlardan iborat davlat.  
 a) Belgiya; b) Norvegiya; c) Pokiston; d) Eron.
- A) 1-a, 2-b, 3-d    B) 1-a, 2-d, 3-c  
 C) 1-b, 2-a, 3-c    D) 1-b, 2-d, 3-c
- 25.** Grafikdagi ma'lumotlar asosida tabiiy va mexanik o'sish hisobiga aholi soni ko'payishining eng past ko'rsatkichi qaysi yilda qayd etilganini aniqlang.
- Tabiiy va mexanik o'sish ko'rsatkichlari
- 
- | Yil     | tabiiy o'sish | mexanik o'sish |
|---------|---------------|----------------|
| 1990-y. | 6.2           | -2.5           |
| 1995-y. | 7.5           | -3.5           |
| 2000-y. | 7.5           | -3.5           |
| 2005-y. | 8.2           | -4.5           |
| 2010-y. | 8.2           | -4.5           |
| 2015-y. | 8.2           | -4.5           |
- A) 2000    B) 1990    C) 2015    D) 1995
- 26.** Ma'muriy-hududiy jihatdan federativ tuzilishga ega bo'lgan davlatni toping.
- A) Niderlandiya    B) Germaniya  
 C) Norvegiya    D) Ukraina
- 27.** Agar Nukusda tushadigan yillik yog'in miqdori o'rtacha 126 mm ni tashkil etgan bo'lsa, undagi yo'gin miqdoriga nisbatan mumkin bo'lgan bug'lanish necha millimetrn tashkil etganda namlanish darajasi 0,12 bo'ladi?
- A) 1230 mm    B) 960 mm    C) 1190 mm  
 D) 1050 mm
- 28.** Agar  $45^{\circ}$  sharqiy uzunlikdagi meridianda mahalliy vaqt  $12^{\text{th}}$  bo'lsa, qaysi meridianda mahalliy vaqt  $19^{\text{th}}$  bo'ladi?
- A)  $165^{\circ}$  shq.u.    B)  $45^{\circ}$  g'.u.    C)  $135^{\circ}$  g'.u.  
 D)  $150^{\circ}$  shq.u.

29. Quyidagi yozuvlari xaritadan foydalanib (1) Kap tog'lari va (2) Somali yarimorolining asosiy qismi qaysi iqlim mintaqalarida joylashganini aniqlang.



- A) tropik va ekvatorial    B) subtropik va subekvatorial    C) tropik va subekvatorial  
D) subtropik va ekvatorial

30. Quyidagi jadvalda qaysi raqamdagagi ma'lumotlar to'g'ri moslashtirilgan?

Nº	Viloyat	Shahar	Korxona	Mahsulot
1.	Farg'ona	Quvasoy	chinni zavodi	kosa, piyola, choynak
2.	Jizzax	Zarafshon	metallurgiya zavodi	marmar, oltin, kumush
3.	Qashqadaryo	Muborak	tabiiy gazni qayta ishlash	tabiiy gaz
4.	Sirdaryo	Do'stlik	beton buyumlari	silikat bloklari

- A) 2, 3    B) 1, 2    C) 1, 3    D) 2, 4